

XOTIN QIZLAR HUQUQLARI

Shukurova Rushona Alisher qizi

Toshkent viloyati yuridik texnikumi Axborot resurs markazi yetakchi mutahassisasi

Annotatsiya: Maqolada ayollar huquqlari - bu ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, fuqarolik va siyosiy mavqeyini mustahkamlaydigan huquqlardir. Ular ayollarni jinsga qarab kamsitishlardan himoya qilish uchun mo‘ljallanganligi haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: shartnomalar, rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar, CEDAW , deklaratsiyasi, Fuqarolik, siyosiy huquqlar , xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy , madaniy.

Kirish: Ayol huquqlari inson huquqlari sohasidagi ko‘plab xalqaro shartnomalar, rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar va harakatlar dasturlarida kafolatlangan asosiy inson huquqlaridan biridir. Xotin-qizlar huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro shartnoma Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiyasi (CEDAW) va uning Fakultativ protokoli hisoblanadi. Bundan tashqari, ayollar huquqlari BMTning boshqa shartnomalarining, jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Irqiy kamsitishga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya, Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya, singari muhim elementlardir.

Asosiy kism: O‘zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta'minlashga alohida e'tibor beradi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib, 1995 yil 6 mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiyasiga qo‘sildi. Shuningdek, Onalikni himoya qilish to‘g‘risida, Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to‘g‘risidagi Konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

O‘zbekiston BMTning ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘shilganidan beri oltita davriy hisoboti BMTning xotin-qizlarga nisbatan kamsitishni tugatish Qo‘mitasiga topshirildi.

Ayollarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil qonunchilik va boshqa chora-tadbirlar tufayli ular o‘z huquq va erkinliklarini, tadbirkorlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, fan va ijtimoiy-siyosiy sohalardagi bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi tenglik mustahkamlangan.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 14-bobi "Oila" deb nomlangan va oila, onalik va bolalikni himoya qilishga bag‘ishlangan. Ertaliklarning oldini olish maqsadida Kodeksining 15-moddasida erkaklar va ayollar uchun nikoh yoshi o‘n sakkiz yosh deb belgilangan.

Milliy qonunchilikda ayollarning huquqlarini himoya qilishning ishonchli kafolatlari belgilangan. Mehnat kodeksining 78-moddasi homilador ayollarni va uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarni tegishlicha homiladorligi yoki bolalari borligi sababli ishga yollashdan noqonuniy ravishda voz kechishga yo‘l qo‘ymaydi; 84-modda homilador ayollarni, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarni, korxona uchun belgilangan eng kam ish joylariga ishga yuborilgan shaxslarni (bolalari bo‘lgan ayollarni) ishga qabul qilishda dastlabki sinovni belgilamaydi.

Oila kodeksi bola katta yoshga to‘lgunga qadar, shu jumladan ko‘chmas yoki ko‘char mulk yoki boshqa qimmatbaho buyumlarni berish orqali alimentni oldindan to‘lash imkoniyati to‘g‘risidagi norma bilan to‘ldirildi. Ajrashgan taqdirda, er-xotinning huquqlarini kafolatlaydigan mol-mulkni taqsimlash tartibi belgilangan.

Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda nikoh yoshiga oid qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralari belgilangan.

2017-2021 yillarda ayollar huquqlarini ta‘minlash va himoya qilishga qaratilgan bir qator me’oriy hujjatlar qabul qilindi.

Mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotida ayollarning rolini oshirish sohasida:

2019 yil 2 sentyabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Qonunda “jins bo‘yicha bevosita kamsitish” va “jins bo‘yicha bilvosita kamsitish” tushunchalariga ta‘rif berildi, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ularning loyihalarini majburiy huquqiy ekspertizasi, gender statistikasi yuritilishi joriy etildi.

Oliy Majlis Senati raisi rahbarligida Gender tengligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha Komissiya tuzildi.

Parlamentning yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari Qo‘mitasi, quyi palatasida Oila va ayollar masalalari Komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

2030 yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning ijrosini nazorat qilish bo‘yicha Parlament komissiyasining tizimli faoliyati tashkil etildi, BRMning beshinchi maqsadi gender tengligiga erishish masalasiga bag‘ishlangan.

Oliy Majlis Senati raisi boshchiligidida Respublika xotin-qizlar jamoatchilik Kengashi tuzilib, uning asosiy vazifalaridan biri xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda Konvensiya va Pekin harakatlar platformasining qoidalarini amalga oshirish masalalarini muvofiqlashtirishdan iboratdir.

2022 yil O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi va uning ustuvor yo‘nalishlaridan biri xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, gender tengligini ta‘minlashdan iboratdir.

Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda faol ishtirok etishi, bugungi kunda mehnat bozorida talab qilinadigan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashiga

ko‘maklashish maqsadida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli Jamg‘armasi tashkil etildi.

Xotin-qizlarning muammolarini tizimli hal etish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Respublika komissiyasi tuzilib, uning asosiy vazifasi hududlarda xotin-qizlarning muammolarini o‘rganish, tizimli hal etish, qashshoqlikni kamaytirish va aholi farovonligini oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T., «O‘zbekiston», 2009.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, sharhlar. – T., «O‘zbekiston», 2009.
3. Islom Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. –T., «O‘zbekiston», 1992.
4. Islom Karimov. O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. – T., «O‘zbekiston», 1993.
5. Islom Karimov. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibiga tabrigi. «Xalq so‘zi», 1995, 14-yanvar.
6. Islom Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T., 1993.
7. Islom Karimov. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. –T., 1993.